

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING SAYLOV
JARAYONLARIDA ISHTIROKI

Jumaniyazova Iroda

Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining saylov jarayonlaridagi imkoniyatlari hamda uning huquqiy asoslari xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *“Ezgu boshqaruv” konsepsiyasi, fuqarolik jamiyati, ovoz berish, saylov natijalarini hisoblash, saylovoldi tashviqot, imzo varaqalari, Ekspert guruhi.*

O'zbekistondagi so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimizda nodavlat notijorat tashkilotlarning ahamiyatini hamda ularni hayotimizdagi o'rnini yaqqol ko'rsatmoqda. Qayd etish zarurki, bugungi kunda eng chekka hududda yashayotgan fuqaro bilan davlat organlari o'rtasida aloqani ta'minlashda eng samarali mexanizm sifatida aynan nodavlat sektori namoyon namoyon bo'layotganini guvoh bo'lmoqdamiz. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim”.⁵¹

Xalqaro hujjatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat va davlatni bir- biriga bog'lovchi ko'priq sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish orqali davlatda “ezgu boshqaruv” konsepsiyasini amalga oshirish, BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga bog'liq bo'lgan 169 vazifalarni bajarishda davlatga asosiy ko'makchi sifatida belgilangan.⁵²

Saylov ham NNT kabi fuqarolarning davlat boshqaruvining amaldagi tizimiga ta'sir etishining eng qulay va samarali mexanizm, jamiyat va davlat o'rtasidagi aloqaning samarali bog'ichidir. Saylovlar aholiga o'z so'rovlarini davlatga yetkazishda yordam beruvchi vosita ham hisoblanadi.

Shu bois ham, fuqarolarni o'z saylov huquqlarini amalga oshirishlarida nodavlat notijorat tashkilotlar faolligi, ularga qonunchilik bilan berilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Qonun hujjatlariga asosan, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining saylovlarda faol ishtiroki bo'yicha yetarli asos va imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu imkoniyatlarni bilish va ulardan keng foydalanish, nafaqat saylovlarning demokratik ruhda o'tishiga, balki mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ham turtki bo'ladi.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati.Xalq so'zi. 2020 yil 21 yanvar

⁵² <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

YEXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan qabul qilingan hujjatda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda nihoyatda muhim rol o'ynashi mumkin. Ular kuchli fuqarolik jamiyatining ajralmas qismidir. Biz nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlashga har tomonlama hissa qo'shishi uchun mavjud imkoniyatlarni kengaytirish tarafdorimiz, deb NNTlarni maqomiga urg'u berilgan.

M.A.Vaxtina, T.V.Ignatova va A.V.Polyaninning qayd etishicha, "bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari nafaqat jamiyat hayotini tartibga solishdan, balki hokimiyat tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini nazorat qilishdan manfaatdor fuqarolarni birlashtiruvchi platformaga aylangan⁵³. Ushbu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, mazkur manfaatdorlik jamiyatni faollashuvi va demokratik jarayonlarda kengroq ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarni saylov jarayoniga keng jalb qilishga qaratilgan chora- tadbirlarning o'zi demokratik islohotlar orqali qo'yilgan maqsadlarga yetish uchun yetarli emas, chunki davlat organlarining maxsus vositalari va xatti-harakatlari bilan ko'rilgan choralardan so'ng ham aholining saylovga bo'lgan qiziqishida katta o'zgarishlar kuzatilmasligi yoki bu o'zgarish uzoq davom etmasligi mumkin.

Bizning fikrimizcha, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida fuqarolarning saylov madaniyatini oshirish, ularda siyosiy jarayonlarda faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilash muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar ushbu tendensiyani tushunib, fuqarolarni saylovlarda qatnashish uchun NNTlarni faol jalb qilmoqdalar.

Xalqaro hujjatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda nihoyatda muhim rol o'ynashi mumkin. Ular kuchli fuqarolik jamiyatining ajralmas qismidir. Biz nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlashga har tomonlama hissa qo'shishi uchun mavjud imkoniyatlarni kengaytirish tarafdorimiz, deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi xalqaro norma va standartlarga mos ravishda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining saylovlardagi ishtirokini belgilab bergan. Jumladan, Saylov kodeksining 8, 11, 14, 15, 20, 23, 26, 33 va 39-moddalarida jamoat birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining saylovlardagi ishtirokini belgilashga qaratilgan normalar belgilab berilgan.

Qayd etish zarurki, Saylov kodeksida "nodavlat notijorat tashkilotlari" degan tushuncha emas, balki "jamoat birlashmalari" va "o'zini o'zi boshqarish organlari" degan

⁵³ Вахтина М.А., Игнатова Т.В., Полянин А.В. Институциональный статус общественного обсуждения законопроектов в системе публичного управления // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. 2018. № 6. С. 237–245

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

tushunchalardan foydalanilgan. Qonunchilikka muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi jamoat birlashmalari tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga binoan "Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin".

Qayd etish zarurki, NNTni ovoz berish, saylov natijalarini hisoblash, saylovoldi tashviqot ishlaridada bevosita ishtirok etish huquqini qonunchilik bilan kafolatlanganligi saylov jarayonining har bir bosqichida samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Saylov kodeksining 39-moddasiga ko'ra: "Markaziy saylov komissiyasi imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshiruvchi Ekspert guruhini tuzishi mumkin. Ekspert guruhi tarkibiga ichki ishlar organlarining, adliya organlarining mutaxassisleri, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari vakillari jalb etiladi. Imzo varaqalarini tekshirishda siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari ishtirok etadi"⁵⁴.

Mazkur jarayonda ekspert guruhi tarkibiga davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ham jalb etilishi jamoatchilik nazorati va davlat organlari va fuqarolik jamiyati vakillarini hamkorligini aks ettirib, bu avvalo nodavlat notijorat tashkilotlari a'zolarining manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari saylovlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Bugun mamlakatimizda demokratik institut sifatida shakllangan mahalla instituti vakillari muddatidan oldin ovoz berish, ovoz berish kuni saylov uchastkasining ochilish hamda saylov natijalarini aniqlash va e'lon qilish jarayonlarini kuzatib borishi mumkinligi milliy demokratik institutning o'rnini yanada oshiradi.

Xorijiy davlatlarning ayrimlari qonunchiligida ham bu borada ayrim qoidalar nazarda tutilgan. Jumladan, Amerika davlatlari tashkilotiga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlarning konstitutsiyalarida saylovlarni jamoatchilik doirasida kuzatish har bir saylovchining huquqi va majburiyati ekanligi haqidagi qoida mustahkamlangan. Misol uchun, Gvatemala Siyosiy Konstitutsiyasining 136-moddasiga muvofiq, fuqarolarning saylov erkinligi va samaradorligini hamda saylov jarayonining shaffofligini nazorat qilish huquqiga ega. Kubada esa saylov kuni saylov uchastkasida ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish vaqtida har qanday saylovchining – Kuba fuqarosi, shuningdek, Kuba ommaviy axborot vositalari vakillarining ishtirok etishiga ruxsat etiladi, ammo inson huquqlari va nodavlat tashkilotlari vakillarining ovoz berish jarayonini kuzatishiga ruxsat berilmaydi⁵⁵.

Qayd etish zarurki, nodavlat notijorat tashkilotlari kuzatuvchilari, saylovchilarga ularning saylov huquqlari buzilganligi to'g'risida tegishli organlarga arizalar berishda va shikoyat

⁵⁴ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.06.2019 й., 03/19/544/3337-сон

⁵⁵ Избирательное законодательство выборы в современном мире. Американский континент / В.И. Лысенко; Под общей ред. В.Е. Чурова; Центральная избирательная комиссия Российской Федерации. – Вып. 2. – М.: МедиаПресс, 2010. – С. 148.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

qilishda yordam beradi. Ayni paytda ayrim ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan saylovchilar bilan muloqot qilish uchun ishonch telefonlari tashkil etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagi PF-6181-son "2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari bilan aloqalari, ularni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Yuqorida tahlil qilinganidek, Saylov kodeksida siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan saylovni kuzatish (33-modda) nazarda tutilgan. Saylov kodeksida NNTlar vakillarini saylov va referendum uchastkalarida kuzatuvchi bo'lib ishtirok etishi yoki ularni saylov jarayonidagi ishtirokiga oid tartib nazarda tutilmagan.

EXHT/DIIBning 2023 yil 30 aprelda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy referendumini kuzatish bo'yicha cheklangan missiyasining yakuniy hisobotida ham mustaqil ravishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan saylovlarini kuzatishga qonun bilan ruxsat etilishi kerakligi ko'rsatilgan². Bizningcha, qonunchilikka NNT vakillarining saylov va referendum uchastkalarida kuzatuvchi bo'lib ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish dolzarb ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, Saylov kodeksiga "Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda kuzatuvni amalga oshirish uchun ro'yxatga olingan fuqarolarning tashabbuskor guruhlarining vakillari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin" ligini belgilovchi normani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur normani mustahkamlanishi O'zbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasi ikkinchi qismi (Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega), 34-moddasi (Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o'z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart) va 36-moddasi (O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi)⁵⁶da belgilangan kontitutsiyaviy huquqlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, NNTlarning saylov jarayonlari ishtirokini kengaytirish saylovlarni oshkoralik ruhida o'tishini ta'minlaydi va saylovlarda ilg'or amaliyotni joriy etishni tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shubhasiz, saylov jarayonlari ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining kuzatuv olib borishi, jamoatchilik nazorati va saylovlarda faol ishtirok etishi orqali hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda davlat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralikni yanada mustahkamlaydi.

⁵⁶ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

2. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son)

3. Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2-сон, 36-модда.

4. Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат жамғармалари тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003, № 9-10 (1329-1330)

5. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 03.03.2022 y., 03/22/756/0180-son; 30.06.2022 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019 y., 03/19/544/3337-son

7. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi ORQ-474-son Qonuni // Elektron manba: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018-y., 03/18/474/1062-son.